



Navoiy viloyat statistika boshqarmasi

Qurilish ishlari hajmi yanvar-sentyabr 2018 yil

RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari – 1382,3 mlrd.so`m
- Yirik pudrat tashkilotlarining ulushi – 31,9 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 35,8 foiz
- Qurilishda norasmiy sektor ulishi – 32,3 foiz

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida Viloyatda 1382,3 mlrd.so`mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o`sish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1 foizni tashkil etdi va 2017 yil mos davriga nisbatan 19,7 foizli punkitga oshdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 440,8 mlrd.so`mni yoki 215,4 foizni tashkil qilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 115,0 foizli punktga oshdi.


Mos ravishda, kichik korxona va mikrofirmalari 495,5 mlrd.so`m yoki 99,9 % ni hamda norasmiy sektor 446,0 mlrd.so`m yo`ki 103,6% ni tashkil etdi.

Ayrim tuman(shahar)larda o`tgan yilning mos davriga nisbatan pudrat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmi oshganligi kuzatildi.


Shu jumladan, Navoiy shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 15,9 mlrd.so`mni, o`sish sur`ati 242,6 foizni tashkil etdi.

Xususan, yirik qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining yuqori darajada o`sish sur`ati Zarafshon shahrida – 356,1 mlrd.so`mni yoki 283,3%ni mos ravishda, Karmanada tumanida – 17,1 mlrd.so`m yoki 59,1%ni, Qiziltepa tumanida – 17,1 mlrd.so`m yoki 87,3%ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi, mlrd.so`m



Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining 2018 yil yanvar-sentyabr oylari uchun o'sish



2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi quyidagicha ifodalanadi:

	Jami	Shu jumladan		
		Hududiy qurilish-pudrat, tashkilotlari		
		Mlrd. sum	O'sish sur'ati, foizda	Mlrd. sum
Navoiy viloyati	1382,3	123,1	410,4	291,8
Navoiy sh.	247,0	104,7	15,9	242,6
Zarafshon sh.	392,0	283,3	356,1	283,3
tumanlar				
Karmana	179,8	114,4	16,7	59,1
Konimex	22,3	145,9	-	-
Qiziltepa	194,5	95,1	17,1	87,3
Navbahor	87,7	81,0	-	-
Nurota	78,2	88,0	-	-
Tomdi	2,2	76,9	-	-
Uchquduq	18,8	117,8	-	-
Xatirchi	159,5	96,6	4,6	-

Hududlar kesimida qurilish ishlaringning eng ko'p qismi viloyatning Zarafshon shahrida bajarilgan bo'lib viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlaringning 28,4% ni tashkil etadi, Navoiy shahrida bajarilgan qurilish ishlari esa 17,9% ni, Qiziltepa tumanida 14,1% ni, Xatirchi tumanida 11,5 %ni va Karmana tumanlarida 13,0 %ni tashkil etdi.

Viloyat bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Tomdi tumanida bu ko'rsatkich eng past 0,2%ni tashkil etdi.

Shuningdek, Uchquduq va Konimex tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 1,4% va 1,6% ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Katta hajmdagi amalga oshirilayotga qurilish ishlariga – "ZARAFSHON QURULISH BOSHQARMASI" tomonidan amaiga oshirilib kelinayotgan "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining uchinchi liniyasini nasos stantsiyalarini rekonstruksiya qilish, "Ko'kpatas" va "Daugiztau" konlarini qazib olish texnologiyasini takomillashtirish "Aumindzo-Amantay" konlارida oltin-ma'danli birikmalarni qazib olish va qayta ishslash hisobidan qurish kabi yirik loyihalarni misol keltirib o'tish mumkin.

2018 yil yanvar-sentyabr oylari qurilish ishlari hajmining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

**Turar joy va noturar joy
bino va inshoatlarni
barpo qilish bo'yicha
qurilish ishlari 1198737,1
mln.so'm**



**Fuqarolik qurilishi
ob'ektlarini qurish
bo'yicha qurilish ishlari
102312,3 mln.so'm**


**Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari
81252,2 mln.so'm**

Mulkchilik shakllari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 977,5 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 70,7 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,6 foizli punktiga kamaydi.

Joriy davrda Karmana tumani bo'yicha jami qurilish ishlari hajmida nodavlat sektorining ulushi 90,7 foizni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 10,4 foizga oshdi, mos ravishda bu ko'rsatkich Qiziltepa tumanida 100,0 foizni tashkil qildi

Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 404,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 29,3 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,6 foizli punktiga oshdi.



O`zbekiston Pespublikasi Prezidentining 2016 yilning 22 noyabirdagi «2017-2021 yillarda shaharlada arzon ko`p qavatli uylarni qurish va rekonstruksiya qilish Dasturini amalga oshirish choratadbirlari to`risida»gi PQ-2660 sonli qaroriga asosan viloyatda 2019 yil uchun mazkur uylar bo'yicha qurilish ishlari boshlab yuborildi.